

**O'ZBEK MILLIY RAQS SAN'ATIDA O'CHMAZ IZ QOLDIRGAN
IJODKORLARGA NAZAR**

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

Xoreografiya kafedrasи professorи

Muxamedova O'g'iloy Nizamovna

ANNOTASIYA

Ush bu maqolada O`rta Osiyo bo`yicha noyob sanalgan Farg`onaning lirik raqlari asosan qo`l harakatlarining tezligi bilan shuhrat qozongan. Ayni shu jihat bilan ham Farg`ona xoreografiya maktabi professional va xalq ijro uslublarida butun O`rta Osiyoda tanitgan. Ammo aynan qadimiy o'zbek san`ati tarixi uzoq muddatlar davomida maqom raqsi bilan mashhur bo`lsada, bu klassik durdonaning raqs shakllarini to`plash, saralash va sayqal berish bilan shug`ullangan, ularni bir tizimga solgan jonkuyar san`at fidoyilarining unut bo`lib ketgan nomlari haqida so`z boradi.

Kalit so'zlar: raqs, harakat, xoreografiya, fidoyilik, san'at, xalq, ijodkor
АННОТАЦИЯ

В данной статье лирические танцы Ферганы, считающиеся уникальными в Средней Азии, получили известность главным образом благодаря скорости движений рук. В этом плане Ферганское хореографическое училище познакомило всю Центральную Азию с профессиональными и народными стилями исполнения. Но хотя история древнеузбекского искусства издавна славится статусным танцем, именно сбором, сортировкой и шлифовкой танцевальных форм этого классического шедевра. Говорится о забытых именах страстных ценителей искусства, которые работали и сводили их в одну систему.

Ключевые слова: *танец, движение, хореография, самоотдача, искусство, люди, творец.*

ANNOTATION

In this article, the lyrical dances of Fergana, considered unique in Central Asia, became famous mainly due to the speed of hand movements. In this regard, the Fergana Choreographic School introduced the whole of Central Asia to professional and folk styles of performance. But although the history of ancient Uzbek art has long been famous for status dance, it was precisely the collection, sorting and polishing of the dance forms of this classical masterpiece. It talks about the forgotten names of passionate art connoisseurs who worked and brought them into one system.

Key words: dance, movement, choreography, dedication, art, people, creator.

An`anaviy raqs ijrochilari va musiqachi akkompaniatorlar Yusufjon qiziq Shakarjonov, Ahmadjon Umirzoqov, Lutfixonim Sarimsoqova, Raim Olloberganov, Aka Buxor, Xodiyatxon Hamdamova, Qimmatxon Sultonova, Sharofat To`raeva, Matlatif Sa`diyev, Tamaraxonim va boshqalar qadimiy o`zbek san`ati tarixida o`chmas iz qoldirganlar. Raqs san`atini qadrlab, uning ahamiyatini tushungan, raqs ustalarini e`zozlagan o`zbek san`ati haqida yillar davomida to`plangan manbalar sharhlaydi. Xususan, O`zbek san`atining birinchi tadqiqotchisi L.G.Baxta XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi raqs san`ati to`g`risidagi ma`lumotlarni shoir Xislatdan olgan. Shoir Toshkent va Farg`ona vodiysining mashhur raqqosalari to`g`risida ma`lumotlarni maxsus jamlagan. 1930 yillarda o`z izlanishlarini olib borgan L.G.Baxta biografiyalar va raqs uslublari haqida manbalar to`plagan. O`z ishiga amaliy yondoshib, hatto 1953 yildan boshlab XX asr boshlari 20- yillarda Farg`ona vodiysi, Xorazm va Buxorodagi raqqosalalar bilan yaqindan muloqot o`rnatgan.

O`tgan davrlarga nazar tashlasak, qadimda o`zbek xalqining turmush tarzi feodalizm davridan keyin ham og`ir bo`lganligini guvohi bo`lamiz. Me`morchilik san`ati yodgorliklari xalqning kechmishi, real hayat bilan xayolot olamining bog`liqligi ifodasi bo`lsa, raqs o`sha boy tasavvurining ohanglar og`ushidagi harakatlar majmuidir.

Qarshi viloyati Koson tumani tarixiga to`xtalsak, Halima esavoy

qishlog`ining nomi bir doston. Aynan asos va qo`shimchalar bilan tahlil qilsak, tarjimasi o`zgachadir. Halima-muloyim, yaxshi degani. Esa qonun tartib degan ma`noni anglatar ekan. Voy –bu qalb nidosi. Qo`shiqlarning nomi xuddi: “Yaxshi qonunlar, qaydasiz?”, deb so`rayotgandek. Aynan mana shu qishloqdan mardikorlar raqsi kelib chiqqan. Shu qishloq mardikorlari pul topish maqsadida har mavsum Buxoroga yalang oyoq yul olishgan. Safardan oldin oilasi bilan xayrlashayotganda yalang oyoq raqsga tushganlar. Kiyimlari: oq bo`zdan yaktak va shalvar. Raqs tarixi- mardikorlar aylana davra qurib shu aylana bo`ylab bir-birlarini yelkalariga qo`llarini qo`yishgan, oyoqlarini galma gal ko`tarishib, baland past ko`tarib kuyga monand harakatlar qilishgan. “Yalang oyoqlar” hayoti kabi raqsi ham oddiy bo`lgan. VIII asrda Buxoro viloyati aholisining qo`zg`olonlari va isyonlarida asosan qashqadaryoliklar-kosonliklar va shahrisabzliklar bo`ysinishni istamaganlar. 776-yildan boshlab qariyb 15 yil davomida Muqanna nomi bilan mashhur bo`lgan “oq ko`ylaklik”lar sarasiga kiruvchi Xoshim ibn Xakim boshchiligidagi bir qancha qishloqlarni himoya qilib turgan. Bilamizki, xalq og`zaki ijodidagi rivoyatlarda keltirishicha “oq ko`ylak”liklar ko`ngilli askarlar bo`lib, vatani uchun jonfido qilish maqsadida erkin tarzda qishloqlarini tark etib himoyaga otlanganlar. Jang safaridan oldin oq ko`ylakda, ammo yalang oyoq holatda barchasi tushkun kayfiyatini ko`tarib, hamjihatlikda raqsga tushishgan. Voqealar tavsiyatida qiziqarli ma`lumotlar ham bor. Tarixiy manbalarda keltirishicha, Al Yaqubiy ismli shaxs xalq isyonini chog`ining birida Muqanna Xakim al- A`var, ya`ni “Hakim Birko`z” deb atashgan ekan. Shu tarixiy manbaa sabab bo`lsa kerak, hozirga qadar Koson tumani qishloqlarida “Birko`z” raqsi ijro etiladi. Bu raqsda inson nuqsonini ayblash emas, balki jismoniy chaqqon, ruhan tetik, quvnoqligini aks ettirish, raqqos mushaklari kuchini ko`rsatishdir. XII asrdan beri hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan bu ijro-xalqning noyob topilmasidir.¹

Ommaviy erkaklar tomonidan ijro etiladigan “Qarg`alar”-andijoncha

¹ L.Avdeeva- “O'zbek milliy raqs tarixidan”, Toshkent-2001 y, 106 bet

erkaklar raqsi hazil-mutoyibaga boyligi bilan boshqalaridan farqlanadi. Mahalladosh yigitlar bir qatorda ketma-ketlikda turib oladilar. Chakmonning etagining bir uchini qayirib, belbog`lariga qistiradilar, bir-birini tirsaklaridan ushlab, tovonlari ko`tarilgan holda cho`kkalab o`tiradilar. Tomoshaga kelganlar ham ko`cha bo`yida kuylab, laparlar aytib qiziqchilik, ya`ni hazil-mutoyiba qiladilar. Laparlarni keti uzilmay, bir-biriga bog`lanib ketadi. Raqqos yigitlar ilon izini hosil qilib, bir mayda, bir yirik qadamlar bilan zanjir mustahkamligini ta`minlab harakatlanadilar.

“Chapandoz” raqsi-erkaklarga xos bo`lib ommaviy raqs emas, balki ommalashgan raqs namunasidir. Ya`ni ko`pchilik bir bo`lib raqs ijro etgan hamda har bir ijrochi o`zining xohish-istagini, layoqati va qobiliyatini namoyish qilgan. O`tmishda jangga kirish oldidan er yigitlar ijro etganligi bilan tarixiy ahamiyatga egadir.

Muqaylik. XIX asr oxiri XX asr boshlarida mashhur raqqos sifatida elga tanilgan Muqaylikning asl ismi usta Muhammadjon bo`lib, u 1845 yilda Qo`qon yaqinidagi Makki qishlog`ida tug`ilgan va 1935 yilda vafot etgan. Kishilarning aytishiga qaraganda 60 yillarda uning mashhurligi shu darajaga etganki, hatto shahar va tumanlardagi mahalla–qo`rg`onlar raqqosni xalq bayramlariga taklif etish uchun o`zaro mushtlashishgacha borgan. Oradan yigirma yil o`tsa ham yosh-xususiyatiga qaramay mashhurligi so`nmagan. O`zbek adabiyotining yirik demokratik vakillaridan biri bo`lgan Muqimiy ham raqqos ishtirokidagi yig`inlarda qatnashib uning san`atiga bag`ishlab she`rlar yozgan ekan. Qo`qonlik bu raqqos bilan bir necha yillar mobaynida taniqli musiqachilar Ro`zivoy nog`orachi va Shodmon doirachilar o`z mehnat faoliyatlarini birgalikda olib borishgan. Muqaylik o`zining xoreografik raqs kompozitsiyalariga o`zi musiqa bastalagan, ularni “Katta o`yin” usulining ritmik uslublariga moslashtirgan. Ko`p qirrali san`atkor tomoshaning raqs qismlariga refren sifatida kirgan qo`shiqlar uchun she`rlar ham yozgan. U har bir dasturiga alohida yondoshib, har safar o`z she`rlarini kiritib, Muqimiy she`riyatiga ham e`tibor qaratgan. Uning repertuarida “Katta o`yin” usulidagi raqlar ijrosi ham o`rin olgan. Afsuski, yuksak mahoratlari

el nazariga tushgan raqqosni saroy a`yonlari, Qo`qon xonlari xushlamagan, sababi esa oddiy-ilohiy iqtidorga ega bo`lgan Muqaylik saroyda alohida tomoshalar ko`rsatishdan bosh tortganligidadir. Ushbu holat bo`lganda qadrdon qishlog`iga yo`l olgan raqqosni xalq yana markazga olib kelgan.²

Hamdam. XIX asrning 80-yillarida Toshkentda tug`ilgan inqilob arafasida vafot etgan. Hamdam juda erta tanilgan. U faqatgina oilaviy marosimlarda qatnashsa-da, o`sha yerga juda ko`p olamon to`planib, keng maydonada raqs tushishiga sabab bo`lgan. Bir necha yillar mobaynida o`z chiqishlaridan katta mablag` to`plagach, Toshkentda hokimning istagiga qarshi borib shaxsiy teatrini ochgan va Shapito sirkida joylashgan. Uning o`z akkompaniatorlar guruhi bo`lgan. Ular: 4 nafar doirachi, 2 ta nog`orachi va 8 ta vokalchilar edi. Hatto kerakli paytlarda karnay va surnaychilarni ham jalb etgan. Ba`zan qo`sinq kuylashga ham jazm etgan va qo`l, oyoq, bosh va yelka harakatlari bilan yengil harakatlarni ifodalagan. Katta va kichik raqs uslublarida raqlar ijro etib, o`ziga xos raqs – vokal spektakllarini yaratgan. Liboslariga ham alohida ahamiyatli bo`lib, har bir chiqishida o`z tashqi qiyofasiga e`tibor qaratgan. Raqs dasturini ijrosi jarayonida qo`sinqchilar yarim doira hosil qilib, vokalchilar o`rtasida odam bo`yi baravar patnislarni ko`targan artistlar raqqos Hamdamning orqa fonida turgan. Har bir chiqish muayyan rang va turlardagi metalldan tayyorlangan qalqonlar bilan bezatilgan, bunday dekoratsiyalar sahna bezagiga alohida joziba bag`ishlagan. Raqs mazmunidan kelib chiqib, patnislар, shamlar, kichik va katta moychiroqlar, mash`alalar bilan yorug`lik berilgan. Tomoshalar qiziqarli tarzda bir necha soatlab davom etganligi hamda lirik-epik mavzu doirasidagi kompozitsiyalarning ijro mahorati bilan raqqoslardan ajralib turgan. Katta raqlarining ham ijro usuli o`zgalarnikidan farqli jihatlari ko`p bo`lgan. Uning ijrosi usuli: harakatlarning yigitlarga xosligi, imo-ishoralarning raqs va kuy bilan uyg`unligi, charxining sekin bo`lsada, muvozanatni aniq tuta bilganligi, shuningdek, lirik kichik raqlardagi tana a`zolari, yuz, qosh, kiprik va qo`l va barmoq harakatlari, oyoq uchidagi mayda qadamlardagi o`ziga xos yurishlari bilan muxlislar diqqatini tortgan.

² Rahmonov M. O`zbek teatri tarixi. Qadim zamonlardan XIX asrga qadar.- T., Fan, 1975

www.tadqiqotlar.uz

14-to`plam 3-son dekabr 2024

Uning tomoshalarini ko`rganlar xuddi doston, ertak va rivoyatlarni eslatuvchi o`zga bir mo`jizakor olamga tushib qolganliklarini zavq bilan bayon qiladilar.

O`zining tashqi ko`rinishiga, sahna bezaklariga va liboslariga e`tiborli bo`lganki, hatto shoir Hislatning hikoya qilishicha, raqqosning oltindan ishlangan “Zar kokili” shu qadar og`ir va asl sof tilladan, liboslari ham shunga monand qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan. Shu bois politsiya tomonidan qurolli soqchilar yollangan, o`zi bilan miltiq olib yurishga ruxsat berilgan. Ammo raqqos ayni kamolot cho`qqisida juda yosh bo`lgan davridayoq vafot etgan.

Xislat: “Hamdam raqslari o`t-alangaga to`la edi va shu alangada kuyib kul bo`ldi”, deb yozgan edi.

Baratov Solih Xon Xo`ja. Kichik raqlarning mohir ijrochisi bo`lgan Baratov Solixon Xo`ja 1882-yilda Toshkent shahrida suvoqchi oilasida dunyoga keladi. O`z mahallasidagi musiqachilarga homiylik qilgan Saydazimboy uni ota-onasidan sotib oladi va doirachi Tosh Usta va raqqos Ma`murjonga shogirdlikka beradi. Solih 13 yoshidan boshlab shahardagi boy-badavlat xonadonlariga tashrib buyurgan mehmonlarga tomoshalar ko`rsata boshlagan va shubhasiz Saidazimboyning mulki bo`lgan. Asr boshlarida boyning xizmatidan chiqadi, raqqosslikni tashlaydi erkin musiqachi doirachiga aylanadi. Taniqli qo`sishiqchi Ashur A`lam Mahkamovdan uzoq yillar san`at sirlarini o`rganadi. Qo`qonlik doirachi Karimbekov bilan ishlaydi. Maxallasidagi musiqachilarga va o`ziga homiylik qilgan Saidazimboyning xususiy raqs mifiktabida 1990 yillarda juda ko`p shogirdlar tayyorlaydi. Ayniqsa, shogirdlari orasida chimkentlik Qurbon Xakimov va toshkentlik Ismat Ismatov mashhur bo`lgan.

“Katta o`yin” usullari va musiqiy-ritmik asarlaridan tuzilgan kompozitsiyasi bilan mashhur bo`lgan Solih Xon Baratov shoh dasturi hisoblangan “Katta o`yin”ni quyidagi tartibda tuzgan:

1. Gul o`yin (6 usul), Furqat so`zlaridan tuzilgan vokal naqoratli;
2. Shoh (6 usul);
3. Mashhur Dilxiroj musiqasi va nihoyat so`nggi 4-chi qism “Sharaf” deb

nomlangan bo`lib, 2 ta original usuldan iborat bo`lgan.

1936-yillarni xotirlab san`atshunos I.G.Vaxta shunday deydi: Yusufjon qiziq Shakarjonov bilan raqqosning Toshkentdagи kichik raqs ijrosi tomoshasida Yusufjon akaning hazil aralash quyidagi fikrni xotirlaydi: “Uning raqsi-yaxshi palov, lekin u oshga shakar sepib chiqibdi...”

Yusufjon qiziq Shakarjonov. Atoqli o`zbek an`anaviy qiziqchi va qo`g`irchoq teatri artisti, askiyachi, doirachi, usulchi va raqqos Yusufjon qiziq Shakarjonov 1869 yilda Marg`ilon shahrida tavallud topgan. U Farg`ona maktabi va teatr tomoshalaridagi satirik plastik raqs sahnalar ustasi bo`libgina qolmay, Katta mumtoz raqslarning “Katta o`yin” turkumi, Xona bazm kichik raqslarining ham mahoratli ijrochisi hamdir. Ijro etish uslubida mardonavorlik, noyob xatti-harakatlar, so`zomollik bo`lgan. Ayniqsa, raqslarida ko`pgina uslublarni nihoyatda tezlik bilan to`xtovsiz bir- birga tutashgan raqs frazalari bilan almashinishi, qolaversa o`z salobatiga ega bo`lgan san`atkordir.³

O`zbek raqs san`atining birinchi tadqiqtchisi I.Baxtanining materiallaridan: “Yusufjon qiziq barcha o`zbek musiqa asboblarini egallagan, biroq doira va nog`ora chalishda alohida mahoratga erishgan. Agar uning mahorati Usta Olim mahorati bilan solishtirilsa, shuni aytish kerakki, usta Olim Komilov ijrosining aniq va nafisligiga qaramasdan, uning ijrosidagi ohanglar Yusufjon qiziqning ehtirosli ijrosidagiga nisbatan quruqroq chiqadi.

Yusufjon qiziq-ulkan temperament sohibi edi. Uning doira chertishi, harakatlari va raqqosani imo-ishoralari haqiqatan ham ulug`vor, “ritmik irodasi” ning kuchi tomoshabinni butunlay lol etib buyuk iste`dod ne`matidan bahramand etar edi. O`rta Osiyo, Eron, Afg`oniston va Turkiyada ko`plab tomoshalar ko`rsatgan Yusufjon qiziq Shakarjonov o`tgan asr oxirlarida serqirraligi bilan tanilgan. U 1909 yilda Peterburglikka gastrol safarini uyushtirib, xoreograflarni o`z san`ati bilan tanishtirdi. Usta Olim Komilov bilan Yusufjon qiziq Shakarjonovning “Katta o`yin” farg`onacha raqs Maqomini raqs usullari I.Vaxta va Ye.Romonovskaya tomonidan 1930-yillarda yozib olingan va hozirgi davrga

³ Qodirov M. An`anaviy teatr tarixi. – T., G`ulom nashriyoti, 1975.

www.tadqiqotlar.uz

14-to`plam 3-son dekabr 2024

qadar saqlanishining boisi, jonkuyar ikki tadqiqotchi san`atshunoslarning Farg`ona vodiysidagi yangi raqqoslar avlodiga meros qilib topshirganliklaridadir.

Mahkam Hofiz. Qo`qonlik mashhur raqqos va qo`shiqchi Madumar Hofizning shogirdi sanalmish Mahkam Hofiz ko`p qirrali san`atkor bo`lib,hofiz, raqqos hamda doirachi bo`lgan. U 1868-yilda Qo`qonda tug`ilgan. O`z navbatida ustozi ham o`sha davrning o`zbek afsonaviy raqqosasi bo`lgan Zebo Parining shogirdi va davomchisi edi. XIX asrning boshlarida serg`ayrat va tinib- tinchimas ijodkor raqqoslikni puxta egallagach, bu yo`nalishni to`xtatadi va doira uslublarini o`rganishga kirishadi. Doira jo`rligida “Katta o`yin”ni maromiga yetkazib ijro etayotgan mahoratlari san`atkor 1920 yillarning oxirlarida inqilobiy xalq bayramida aynan “Katta o`yin” ijrosida jon taslim qiladi. Ha, shijoatli va o`z kasbiga bor vujudini, kuchini qo`shib ijro etadigan Mahkam Hofizning barmoq zarbida hosil bo`lgan doira sadolari Qo`qonning markazida chalinsa, aks-sadosi yaqin atrofdagi qishloqlargacha eshitilgan ekan. Diametri 1 metrni tashkil etgan ushbu doirani yana bir ahamiyatli jihat shunda edi-ki, u aynan hofiz tomonidan yasalgan. Atoqli o`zbek an`anaviy qiziqchi va qo`g`irchoq teatri artisti, askiyachi, doirachi, usulchi va raqqos Yusufjon qiziq Shakarjonov uning raqslarini “ruh va iroda” zaifligini chirpirak qilib uchirib yuboruvchi quyunlarga o`xshatgan.Chindan ham zabardast va salobatli artistning raqs qahramonlari botiru bahodirlar bo`lgan. Jismoniy baquvvat va kelishgan alp qomatli ijodkor “Katta o`yinlar ijrosida doira va raqs ijrosida o`ziga xos o`rin egallashi bilan san`timiz tarixida munosib o`rin egallagan.

Kamolxon Muhammadjonova. Qo`qonlik mashhur va mohir yallachi Kamolxon Muhammadjonova 1873-yilda Qo`qonda tug`ilgan. 11 yoshidan boshlab omma orasida mustaqil ravishda ochiq yuz bilan sahnaga qadam qo`ygan qizaloq Farg`ona vodiysida tez taniladi. O`zbek raqs san`atining birinchi tadqiqotchisi I.G.Baxtaning yozishicha: “Erining vafotidan erta beva qolgan mohir yallachi Ota Xo`ja rahbarligida ishlay boshlagan. Farg`ona vodiysida yallachilar erkak ustozlar qo`lida ishlagan va o`qigan. Hatto ular bilan birgalikda va jo`rlikda to`ylarda erkaklar davrasida ochiq yuz bilan tomosha ko`rsatgan. Biroq yallachi raqsni tugatishi bilan yuzini yopgan va pulni yig`ib olgach, davradan chiqib

ketgan.

Lyubov Avdeevaning ilmiy izlanishlarida yozishicha: “Kamolxon Xona bazm va Katta o`yin shakllarining iqtidorli ijrochisi bo`lgan. Bu raqslar ichkari hovlilarda katta gulxanlar yorug`ida ijro etilgan. Raqqosalar asosan “Katta o`yin”ning “ayollar varianti”ni, ya`ni tuzilishiga ko`ra Gul o`yin bo`limi usullariga yaqin bo`lgan maxsus tanlangan usullarda raqslar ijro etgan”. Ota Xo`ja Saidalimovning shogirdi Kamolxon Muhammadjonova 1940-yillarning oxirlarida vafot etadi.

Adalxon. O`z davrining o`ziga xos usulida raqs ijro etgan, ham tashqi ham ijro uslubi sodda bo`lgan Adalxon Qo`qonda tug`iladi. Tabiiylici va kamtarlik fazilatlari bilan elga tanilgan raqqosa, nafaqat sodda raqslar ijrosi, balki qo`qonlik raqqosalardan ajralib turuvchi libosi bilan xalq orasida e`tibor topadi. Ochiq rangdagi shoyi ko`ylak ustidan qomatiga yopishib turuvchi oq kamzul kiyar, boshiga oq ro`molni durra qilib qiya o`rar edi. Adalxon o`sha davrning eng sodda raqqosalardan bo`lib, yagona taqinchog`i oq marvariddan va xalqa ziragi bo`lgan. Sharqning buyuk shoiralari Nodira, Uvaysiy, Zebuniso, Dilshod Barno she`rlariga o`z bilganicha raqslar qo`yib, tana harakatlari yordamida ma`nosini ifodalab bergen. Muxlislari ismiga “otin” so`zini qo`shib hurmat qilishardi.⁴

1916-yildagi bayramlarning birida Adalxon raqslarini tomosha qilgan Tamaraxonim o`z esdaliklarida afsonaviy raqossa haqida quyidagicha xotirlaydi:

Marg`ilonlik mashhur Adalxon sipo qora baxmal ko`ylak kiygan, uzun sochlariga bog`langan kumush soch popugi tovonigacha tushib, jiringlab turardi. Adalxon “Tanovor”ni kuylay boshladi, qo`shiq matniga yallachilar, uy egalari va hurmatli mehmonlarning nomlarini qo`shib ayta boshladi⁵.

Adalxon ko`zlarini yarim yumgancha, past ovozda kuylay boshladi: “Ko`rmayin bosdim tiklonni, tortadurman jabrini, ko`rsam edim, bosmas edim, tortmas edim dardini”. U so`zlarni chuqur ko`ngil dardi bilan aytar, tinglovchilar sekin bosh qimirlatib eshitishar edi. Uning tovushi go`zal avjiga chiqdi. Hamma

⁴ Qodirov M. Temur va temuriylar davrida tomosha san`atlari. – T., Fan, 1997.

⁵ L. Avdeeva- “O'zbek milliy raqs tarixidan”, Toshkent-2001 y, 106 bet

joyida qotib qolgan, miq etmasdan tinglar edi... Dasturxonchi doira chalib, barchani hovliga taklif qildi. U yerda, gurillab yonayotgan gulxan atrofida yallachilar raqs boshladi. Adalxon gulxan yorug`ida sirli sharpadek raqs tusha boshladi, uning ko`ylaklarida kamalak ranglari aks etardi...

Ko`chada karnay-surnay ovozlari eshitildi, hamma o`sha tomonga yugurdi, men esa Adalxon dan ko`zimni uzolmas edim. U ham o`sha tomonga yo`l oldi. Paranji yopingan kelinni qarindoshlari mash`alalar yorug`ida aravada olib kelishardi. Yallachi qo`sinq boshladi: “Yig`lama qiz, yig`lama, yor, to`y seniki yor- yor, ostonasi tillidan uy seniki, yor-yor. Tog`da toychoq kishnaydi ot bo`ldim deb, yor-yor, uyda kelin yig`laydi yod bo`ldim, deb yor-yor...”

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avdeeva L. O`zbek milliy raqsi tarixidan T., “O`zbekraqs”. 2001.
2. Rahmonov M. O`zbek teatri tarixi. Qadim zamonlardan XIX asrga qadar.- T., Fan, 1975.
3. Qodirov M. An`anaviy teatr tarixi. – T., G`ulom nashriyoti, 1975.
4. Qodirov M. Temur va temuriylar davrida tomosha san`atlari. – T., Fan, 1997.
5. Karimova R. Xorezmkiy tanets T., 1975.
6. Muxamedova O`N. “Uyg`ur xalq raqsi” T., 2009.
7. Tangureyeva S. Vsya jizn v tantse T., 2006.